Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSIYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDAIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrux Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDYIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abdusalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDYIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATIONS SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaoqu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIY TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Baxramovich	
INNOVATION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletaliyeva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
Suxrob G'aybullov	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	1427
Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi, Kosimova Gulyor Axmatovna	
INNOVATION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	1432
Atamatov Abduxalil Salomovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSİYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH.....	1437
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
TURIZM KLASSTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASSTERLARGACHA.....	1441
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi	



TURIZM KLASTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASTERLARGACHA

Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

Mustaqil izlanuvchisi

Email: shohistayazdanova78@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm klasteri konsepsiyasining tarixiy evolutsiyasi hamda turli iqtisodiy davrlarda uning ishlab chiqarish, hududiy raqobat va innovatsiya tizimlaridagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-taqqoshlash, konseptual kontent-tahlil va iyerarxik tasniflash yondashuvlari qo'llandi. Natijada klaster nazariyalarining turizmga moslashuv bosqichlari va olimlar pozitsiyalarining iyerarxiyasi taklif etildi.

Kalit so'zlar: turizm klasteri, klaster evolutsiyasi, hududiy raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, qiymat zanjiri, aglomeratsiya.

Abstract. This article analyzes the historical evolution of the tourism cluster concept and its role in production, regional competition, and innovation systems across different economic eras. The study employs methods of historical-comparative analysis, conceptual content analysis, and hierarchical classification. As a result, the stages of adaptation of cluster theories to tourism and a hierarchy of scholarly positions are proposed.

Key words: tourism cluster, cluster evolution, regional competitiveness, innovative development, value chain, agglomeration.

Аннотация. В данной статье анализируется историческая эволюция концепции туристического кластера, а также его роль в системах производства, региональной конкуренции и инноваций в различные экономические периоды. В исследовании использовались методы историко-сравнительного анализа, концептуального контент-анализа и иерархической классификации. В результате были предложены этапы адаптации кластерных теорий к туризму и иерархия позиций ученых.

Ключевые слова: туристический кластер, эволюция кластера, региональная конкурентоспособность, инновационное развитие, цепочка добавленной стоимости, агломерация.

KIRISH

Global iqtisodiyotning shiddatli transformatsiyalashuvi sharoitida turizm sohasi nafaqat xizmatlar yig'indisi, balki hududiy iqtisodiy o'sishning strategik drayveriga aylanmoqda. Zamonaviy raqobat muhiti turistik yo'nalishlardan faqatgina tabiiy resurslarga tayanib qolmasdan, balki innovatsion boshqaruv modellarini joriy etishni talab qilmoqda. Bu borada klasterli yondashuv turizm industriyasini tizimlashtirishning eng samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Turizm klasterlarining rivojlanish tarixi oddiy hududiy kontsentratsiyadan yuqori texnologik raqamli ekotizimlargacha bo'lgan murakkab evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. Agar XX asrning ikkinchi yarmida klasterlar asosan transport va mehmonxona xizmatlarining geografik yaqinligiga asoslangan bo'lsa, bugungi kunda aqlli turizm (Smart Tourism) konsepsiyasi doirasida raqamli klasterlar shakllanmoqda. Ushbu maqolada turizm klasterlari evolyutsiyasining bosqichlari, an'anaviy va raqamli modellar o'rtasidagi farqlar hamda ularning iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda "klaster" atamasi bir tomondan aglomeratsiya iqtisodiyoti va sanoat rayonlari haqidagi klassik g'oyalardan, ikkinchi tomondan raqobat ustunliklari va innovatsion tizimlar haqidagi zamonaviy yondashuvlardan oziqlanadi. Marshallning tashqi iqtisodlar konsepsiyasi hududiy jamlanish natijasida bilimlar tarqalishi, ixtisoslashgan mehnat bozori va yetkazib beruvchilar tarmog'ining vujudga kelishini ta'kidlagan bo'lsa



[1], Porter klasterini raqobatning hududiy tashkil topgan shakli, yaqin joylashgan o'zaro bog'liq kompaniyalar va institutlar tizimi sifatida talqin qilib, innovatsion raqobatga urg'u bergan [2]. Keyingi bosqichlarda klaster yondashuvi turizmga ko'chirildi va turizm mahsulotining ko'p komponentli, tarmoqaro xususiyati sababli "destinatsiya", "qiymat zanjiri", "tajriba iqtisodiyoti" kabi tushunchalar bilan birgalikda ishlatila boshlandi [3]. Shu bilan birga, turizm klasteriga oid konseptual maydon kengaygan sari terminologik noaniqlik, turli davrlar iqtisodiyotidagi funksional rolning farqlanishi hamda olimlar pozitsiyalarini tizimli iyerarxiya asosida tartiblash yetishmasligi ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning tadqiqot muammosi turizm klasteri konsepsiyasining tarixiy evolutsiyasi, ya'ni turli iqtisodiy davrlarda (sanoatlashtirish, postindustrial xizmatlar o'sishi, bilim va innovatsiyalar iqtisodiyoti, platformalashuv va raqamli transformatsiya) klasterning qanday rol o'ynagani va bu rolni izohlovchi ilmiy yondashuvlar qanday iyerarxiyada joylashishini aniqlashdan iborat. Ilmiy bo'shliq shundaki, mavjud ishlarda ko'pincha klaster nazariyasi umumiy iqtisodiy doirada sharhlanadi yoki turizmga tatbiq etilganda faqat amaliy tavsiyalar darajasida qoladi; evolutsion bosqichlar va olimlar fikrlarining iyerarxik xaritasi esa integral tarzda ishlab chiqilmagan. Maqolaning maqsadi turizm klasterining rivojlanish evolutsiyasini konseptual rekonstruksiya qilish, turli davrlar iqtisodiyotidagi funksional o'rnini ajratish va ilmiy pozitsiyalarni iyerarxik tasniflash asosida tizimlashtirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: klaster nazariyasining asosiy tarixiy ildizlarini turizm kontekstida qayta talqin qilish; turizm klasteri modelining davrlar bo'yicha o'zgaruvchi funksiyalarini ajratish; ilmiy qarashlarni iyerarxik mezonlar asosida guruhlash va ularning metodologik chegaralarini ko'rsatish; natijalardan kelib chiqib, turizm klasterlarini tahlil qilish uchun konseptual ramka taklif etish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi konseptual-analitik yondashuvga asoslanadi va uchta o'zaro bog'liq blokdan tashkil topadi. Birinchi blok tarixiy-taqqoslash usulini qo'llaydi: klaster g'oyasining aglomeratsiya iqtisodiyoti, sanoat rayonlari, qiymat zanjirlari va innovatsion tizimlar nazariyalaridagi talqinlari turli davrlar iqtisodiy tuzilmasi bilan bog'lanib tahlil qilindi. Bu usul turizm klasteri "qachon" va "nima uchun" alohida model sifatida ajralib chiqqanini aniqlashga imkon beradi, chunki turizmning tarmoqaro tabiati har bir davrning ustuvor resurslari va institutlari bilan uyg'unlashib boradi.

Ikkinchi blok konseptual kontent-tahlilga tayangan holda asosiy ilmiy manbalardagi klaster ta'riflari, funksiyalari va mexanizmlari kodlandi. Kodlash jarayonida geografik yaqinlik, o'zaro bog'liqlik, raqobat va hamkorlik birligi, bilimlar tarqalishi, qiymat yaratish zanjiri, institutsional boshqaruv, innovatsiya va raqamli koordinatsiya kabi semantik tugunlar ajratildi. Kontent-tahlilning maqsadi turizm klasteri haqida gapiruvchi mualliflar qaysi mexanizmlarni markazga qo'yishini aniqlash va turli yondashuvlarning metodologik og'irligini solishtirishdan iborat bo'ldi [2; 3]. Ushbu usul ayniqsa turizm adabiyotida tez-tez uchraydigan "klaster" va "destinatsiya tarmog'i"ni sinonimlashtirish holatlarini tanqidiy ajratish imkonini berdi.

Uchinchi blok iyerarxik tasniflash usulini qo'lladi. Iyerarxiya ikki o'lcham bo'yicha qurildi: birinchisi tushuntirish darajasi bo'lib, mikro, mezo, makro qatlamlarini qamrab oladi; ikkinchisi esa klasterning ustuvor funksiyasi bo'lib, samaradorlik va ixtisoslashuv, raqobatbardoshlik va brendlash, innovatsiya va bilimlar ekotizimi hamda platformalashuv va ma'lumotga asoslangan boshqaruv yo'nalishlarida ifodalandi. Iyerarxik tasniflash turli olimlarning qarashlarini "kuchli" yoki "zaif" deb baholash uchun emas, balki ularning qaysi daraja va funksional logikaga tayanishini aniq ko'rsatish uchun xizmat qildi. Metodologik tanlovlar turizm klasteri fenomenining ko'p qatlamliligi bilan asoslanadi: turizm mahsuloti ham firmalararo kooperatsiya, ham hududiy identitet, ham institutsional muvofiqlashtirish orqali shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari turizm klasterining evolutsiyasi to'rtta konseptual bosqichda izchil shakllanganini ko'rsatdi va har bir bosqich muayyan iqtisodiy davrning ustuvor resurslari hamda boshqaruv mantiqi bilan bog'landi. Birinchi bosqich sanoatlashtirish va erta hududiy ixtisoslashuv davriga mos keladi: bunda klasterlashuv asosan aglomeratsiya samarasining hosilasi sifatida tushuntiriladi. Turizm kontekstida bu bosqich kurortlar, savdo yo'llari bo'yicha shakllangan shaharlar, transport tugunlari atrofida xizmatlar jamlanishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada turizm klasteri "geografik yaqinlik" va "tashqi iqtisodlar" mexanizmlari bilan izohlanadi: malakali kadrlar oqimi, standartlashgan servis amaliyotlarining tarqalishi, yetkazib beruvchilar va vositachilar tarmog'ining paydo bo'lishi, mavsumiy talabni birgalikda boshqarish kabi jarayonlar asosiy rol o'ynaydi [1]. Bu bosqichning konseptual cheklovi shundaki, innovatsiya va boshqaruv institutlari ikkinchi darajali sifatida ko'riladi; turistik mahsulotning tajriba va brendga tayanadigan komponentlari yetarlicha ochilmaydi.



Ikkinchi bosqich postindustrial davr va xizmatlar iqtisodiyoti kengayishi bilan bog'liq bo'lib, klaster turizmda raqobatbardoshlikni oshirish va destinatsiya darajasida qiymat taklifini shakllantirish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda Porter maktabining ta'siri kuchli: klaster ichidagi raqobat firmalarni differensiyalash, sifatni oshirish va yangi xizmat turlarini joriy etishga undaydi, hamkorlik esa birgalikdagi marketing, standartlar, trening va infratuzilma loyihalarini tezlashtiradi [2]. Tadqiqot natijasi sifatida turizm klasteri aynan mezo darajada eng "ko'rinadigan" institut ekanligi aniqlandi: destinatsiya boshqaruv tashkilotlari, mahalliy hokimiyat, ta'lim muassasalari va biznes assotsiatsiyalari o'rtasidagi muvofiqlashtirish klasterining markaziy sharti bo'lib chiqadi. Bunda turizm klasteri hududiy brendlash, mahsulot portfelini kengaytirish, zanjir bo'g'inlari o'rtasida servis standartlarini uyg'unlashtirish kabi funksiyalarni bajaradi [3]. Cheklov esa shundaki, bu bosqichda klaster ko'pincha "siyosiy instrument" sifatida tasvirlanib, ichki tarmoq munosabatlarining murakkabligi, asimmetrik kuch taqsimoti va transaksion xarajatlar yetarlicha tizimlashtirilmaydi.

Uchinchi bosqich bilim va innovatsiyalar iqtisodiyoti mantiqida shakllanib, turizm klasterini bilimlar tarqalishi, tajriba dizayni va xizmat innovatsiyalari ekotizimi sifatida talqin qiladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu bosqichda klaster faqat yaqinlik emas, balki "o'rganish tarmoqlari" va kross-tarmoq integratsiya orqali ishlaydi: turizm innovatsiya ko'pincha texnologik yangilikdan ko'ra xizmat jarayonlari, mijoz tajribasini loyihalash, madaniy resurslarni interpretatsiya qilish va barqarorlik standartlarini joriy etish orqali namoyon bo'ladi [4; 5]. Aynan shu bosqich turizm klasterining tarmoqaro tabiatini eng to'liq ochadi: transport, ovqatlanish, madaniyat, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va kreativ industriyalar bir destinatsiya ichida qiymat zanjiri sifatida qayta ulanadi. Tadqiqot natijasi sifatida turizm klasteri "qiymat zanjirini boshqarish" emas, "qiymat birgalikda yaratilishi" modeliga yaqinlashishi aniqlandi; bunda mehmon ham iste'molchi, ham tajriba hamyaratuvchisi sifatida ko'riladi [6]. Cheklov shundaki, innovatsion ekotizim yondashuvlari ko'pincha real boshqaruv mexanizmlarini mavhum qoldiradi va o'lchash indikatorlari (qaysi innovatsiya, qaysi natija) bo'yicha amaliy noaniqlik keltirib chiqaradi.

To'rtinchi bosqich raqamli transformatsiya va platformalashuv davriga to'g'ri keladi, bunda turizm klasteri jismoniy yaqinlikdan tashqari ma'lumot oqimlari, onlayn reputatsiya, bronlash ekotizimlari va raqamli vositachilar orqali qayta tashkil topadi. Natijalar klasterlashuvning "gibrid" tus olganini ko'rsatdi: bir tomondan, hududiy resurslar va tajriba muhitini faqat joyning o'zida yaratish mumkin; ikkinchi tomondan, qiymatni ushlab va talabni shakllantirishda platforma aktorlari kuchli pozitsiyaga ega bo'lib, mahalliy firmalar ularning qoidalariga moslashishga majbur bo'ladi [7]. Shu sabab turizm klasterining yangi funksiyasi sifatida raqamli koordinatsiya, ma'lumotga asoslangan boshqaruv va reputatsiya kapitalini birgalikda himoya qilish ajralib chiqdi. Bu bosqichda klaster institutlari destinatsiya ichida yagona standartlar va ma'lumot almashish protokollarini yaratmasa, qiymatning sezilarli qismi hududdan tashqariga "oqib ketishi" ehtimoli oshadi. Cheklov shundaki, raqamli yondashuvlar ko'pincha texnologik determinizmga og'ib, madaniy kontekst va hududiy identitetning iqtisodiy rolini ikkilamchi deb ko'rsatishi mumkin.

Olimlarning fikrlari iyerarxiyasi bo'yicha natijalar uch pog'onali tizimni asoslash imkonini berdi. Birinchi pog'ona asosiy nazariy poydevor bo'lib, klasterlashuvning umumiy mexanizmlarini ta'riflaydi: aglomeratsiya va tashqi iqtisodlar [1], raqobatbardoshlik va qiymat zanjiri logikasi [2], innovatsiya tizimlari va bilimlar tarqalishi [4]. Ikkinchi pog'ona turizmga moslashtirilgan konseptualizatsiya bo'lib, destinatsiya tarmog'i, turizm klasteri boshqaruvi, brendlash va tajriba iqtisodiyoti bilan bog'liq yondashuvlarni birlashtiradi [3; 6]. Uchinchi pog'ona esa amaliy-institutsional yo'nalish bo'lib, klaster siyosati, hududiy boshqaruv, mintaqaviy rivojlanish va turizmni iqtisodiy diversifikatsiya instrumenti sifatida ko'ruvchi ishlardan tarkib topadi; bunda O'zbekiston va mintaqada tadqiqotchilarining klasterlarni hududiy raqobatbardoshlik hamda xizmatlar sektorini modernizatsiya qilish omili sifatida yoritgan qarashlari muhim o'rin egallaydi [8; 9]. Iyerarxiya natijasi shuni ko'rsatadiki, turizm klasteri haqidagi bahslar ko'pincha turli pog'onalar aralashib ketgani uchun terminologik ziddiyatlar yuzaga keladi: bir muallif klasteri "joylashuv effekti", boshqasi "boshqaruv modeli", uchinchisi esa "siyosiy instrument" deb tushunadi. Taklif etilgan iyerarxiya ushbu aralashuvni tahliliy ajratib berishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar turizm klasteri evolutsiyasini faqat turizmning ichki rivojlanishi bilan emas, balki iqtisodiy tizimlarning resurs bazasi va koordinatsiya mexanizmlari o'zgarishi bilan izohlash zarurligini ko'rsatadi. Marshallning tashqi iqtisodlar nazariyasi hududiy jamlanishning samaradorlik manbalarini aniq ifodalab bergan: bilimlar "havoda" tarqalishi, ixtisoslashgan mehnat bozorining shakllanishi va yetkazib beruvchilar tarmog'i xarajatlarni kamaytiradi [1]. Turizm bu mexanizmlar kurort hududlaridagi servis madaniyati, mavsumiy mehnat migratsiyasi, mahalliy ta'minot zanjirlari orqali namoyon bo'ladi. Biroq Marshall yondashuvi turizm mahsulotining tajriba va simvolik qiymatga tayanadigan qirralarini to'liq qamrab olmaydi; natijada "nima uchun" ba'zi jamlangan hududlar yuqori daromadli turistik brendga aylanadi, boshqalari esa oddiy xizmatlar to'plami bo'lib qolishini izohlashda cheklangan.

Porter klaster konsepsiyasi natijalarni ikkinchi bosqich bilan uyg'un tarzda tushuntiradi: klaster ichidagi raqobat innovatsion bosim yaratadi, yaqinlik esa hamkorlikni osonlashtiradi [2]. Turizm destinatsiyalarida bu holat mehmonxona, ovqatlanish, transport va ko'ngilochar xizmatlar o'rtasida sifat poygasi va bir vaqtning o'zida umumiy brendni qo'llab-quvvatlash zarurati sifatida ko'rinadi. Shu bilan birga, Porter modeli ko'pincha



“muvaffaqiyatli klaster”ni o‘z-o‘zidan shakllanadigan tizim sifatida tasavvur qilishga moyil; turizmga esa umumiy resurslar (tabiiy va madaniy meros, shahar makoni, tozalikka doir standartlar) bo‘yicha kollektiv harakat muammosi kuchli bo‘lgani sababli muvofiqlashtiruvchi institutlar bo‘lmasa, raqobat fragmentatsiyaga ham olib kelishi mumkin. Demak, Porter logikasini turizmga qo‘llashda institutsional iqtisodiyot va boshqaruv nazariyalari bilan birlashtirish zarur.

Innovatsion tizimlar va o‘rganish iqtisodiyotiga oid yondashuvlar uchinchi bosqichni izohlashda samarali ko‘rinadi. Lundvallning milliy innovatsion tizim haqidagi qarashlari innovatsiyani alohida firmalarning tadqiqot xarajatlari emas, balki institutlar va tarmoqlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasi sifatida talqin qiladi [4]. Turizm klasterlarida bu yondashuv ta’lim muassasalari, kasbiy trening, xizmat dizayni va standartlashtirishning rolini kuchaytiradi. Shumpeterning innovatsiya va tadbirkorlik haqidagi g‘oyalari turizmga yangi kombinatsiyalar, masalan, gastronomik marshrutlar, tajriba turizmi formatlari yoki servis jarayonlarini qayta tashkil etish orqali iqtisodiy qiymat yaratilishini tushuntirishga yordam beradi [5]. Biroq innovatsion yondashuvlarning turizmga tatbiqida ehtiyotkorlik talab etiladi: turizm innovatsiyasi ko‘pincha inkremental va kontekstga bog‘liq, shuning uchun uni sanoatdagi patent ko‘rsatkichlari bilan o‘lchash turizm klasterining real dinamizmini noto‘g‘ri aks ettirishi mumkin. Mazkur maqoladagi natijalar shu muammoni bartaraf etish uchun “qiymat birgalikda yaratilishi” konsepsiyasi bilan bog‘lashni taklif etadi.

Zamonaviy turizm tadqiqotlarida destinatsiya va klaster tushunchalarining yaqinlashuvi kuzatiladi. Buhalis destinatsiyani turli manfaatdor tomonlar tarmog‘i sifatida ko‘rib, boshqaruv va marketing koordinatsiyasining muhimligini asoslaydi [3]. Ushbu pozitsiya biz ajratgan ikkinchi va uchinchi bosqichlarning tutash nuqtasida joylashadi: destinatsiya klaster bo‘lishi uchun faqat resurslar jamlanishi emas, balki o‘zaro bog‘langan qiymat taklifi va institutlararo kelishuv mexanizmi ham zarur. Porterning turizm klasterlariga doir amaliy yo‘nalishdagi qarashlari ham destinatsiya raqobatbardoshligini klaster hamkorligi bilan bog‘laydi [2], ammo raqamli platformalar kuchaygan hozirgi davrda bu hamkorlikning chegaralari qayta belgilanmoqda. Platformalashuv sharoitida mahalliy klaster aktorlari bronlash va reputatsiya tizimlari orqali global vositachilarga bog‘lanib qoladi, bu esa klaster ichida qiymat taqsimotini o‘zgartiradi [7]. Natijalarimiz bu jarayonni turizm klasterining to‘rtinchi bosqichidagi asosiy farqlovchi belgi sifatida ko‘rsatdi: endi klaster raqobatbardoshligi nafaqat joyning resurslari va xizmat sifati, balki ma’lumotni boshqarish, onlayn ko‘rinuvchanlik va raqamli standartlarga moslashuv bilan belgilanadi.

Mintaqaviy va O‘zbekiston kontekstida klaster yondashuvining ilmiy-amaliy ahamiyati hududiy diversifikatsiya va xizmatlar sektorini modernizatsiya qilish vazifalari bilan kuchayadi. O‘zbekiston tadqiqotchilari turizm klasterlarini hududiy rivojlanish omili, resurslardan samarali foydalanish va kichik biznes kooperatsiyasini kuchaytirish mexanizmi sifatida ko‘rsatadi [8]. Rossiya ilmiy maktabida esa klaster siyosati, hududiy boshqaruv va institutsional dizayn masalalariga e’tibor kuchli bo‘lib, klasterlarning “ma’muriy” yo‘l bilan tashkil etilishi va ularning haqiqiy tarmoq aloqalari o‘rtasidagi tafovut muammosi ko‘tariladi [9]. Bizning iyerarxik tasnifimiz bu ikki yo‘nalishni qarama-qarshi qo‘ymasdan, ularning turli pog‘onalarga tegishli ekanini ko‘rsatadi: biri amaliy-institutsional instrumentlar pog‘onasida, ikkinchisi esa boshqaruv va siyosatning metodologik shartlarini tahlil qilish pog‘onasida joylashadi. Shu asosda turizm klasterlarini baholashda “formallik” va “real tarmoq aloqalari” o‘rtasidagi farqni alohida diagnostik mezon sifatida ajratish zarurligi kelib chiqadi.

Turizm klasterlarining an’anaviy ko‘rinishdan raqamli shaklga o‘tishi — bu shunchaki texnik yangilanish emas, balki boshqaruv modelining sifat jihatidan transformatsiyalashuvidir. Bunda asosiy e’tibor moddiy resurslardan “ma’lumotlar iqtisodiyoti”ga ko‘chishi natijasida, klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqalar yagona raqamli ekotizim doirasida yuqori samaradorlikka erishadi (1-jadval).

1-jadval. An’anaviy va raqamli turizm klasterlari o‘rtasidagi taqqoslama¹

Mezonlar	An’anaviy turistik majmualar	Raqamli (Smart) klasterlar
Asosiy resurs	Tabiiy resurslar va bino-inshootlar	Ma’lumotlar (Big Data) va innovatsiyalar
Aloqa turi	Faqat yuzma-yuz (oflayn) hamkorlik	Yagona raqamli platforma va bulutli texnologiyalar
Marketing	Umumiy reklama va bukletlar	Shaxsiylashtirilgan (Target) reklama
Boshqaruv	Vertikal(yuqoridan pastga)	Gorizontal (tarmoqli va ochiq ekotizim)
Natija	Sayyohlar sonining ko‘payishi	Sayyohlar tajribasining boyishi va qayta kelishi

Yuqoridagi jadvalda an’anaviy hamda raqamli turizm klasterlarining bir-biridan farq qiluvchi asosiy omillari sanab o‘tilgan. An’anaviy modelda asosiy urg‘u binolar, yo‘llar va tabiiy resurslarga (ekstensiv rivojlanish) qaratilgan bo‘lsa, raqamli klasterlarda katta ma’lumotlar (Big Data) birinchi o‘ringa chiqadi. Endi sayyohni jalb

1 Muallif ishlanmasi



qilish uchun shunchaki chiroyli mehmonxona yetarli emas. Klaster sayyohning qiziqishlarini (shaxsiylashtirilgan takliflar orqali) raqamli izlar asosida tahlil qila olishi kerak. Bu resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Jadvaldagi eng muhim farqlardan biri — aloqa turi. An'anaviy majmualarda tadbirkorlar bir-biridan mustaqil ishlaydi, raqamli klasterda esa barcha ishtirokchilar (mehmonxona, kafe, muzey, gid) yagona platformaga birlashadi. Bu klaster ichidagi tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi. Masalan, sayyoh bir marta to'lov qilib, barcha xizmatlardan (all-in-one raqamli chipta) foydalanishi mumkin. Bu "sinergiya" effektini (birgalikdagi natija alohida natijalar yig'indisidan katta bo'lishi) ta'minlaydi.

An'anaviy marketingda reklama hammaga birdek yo'naltirilgan (masalan, televizor yoki bannerlar) bo'lsa, raqamli klasterda esa target (maqsadli) marketing ustuvor. Ma'lumotlar tahlili orqali klaster sayyohning nima xohlashini u kelishidan oldin biladi. Bu esa marketing xarajatlarini kamaytirib, sayyohning mamnunlik darajasini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada turizm klasteri konsepsiyasining evolutsiyasi iqtisodiy davrlar kesimida konseptual rekonstruksiya qilindi va klasterning turizm bazaridagi funksiyalari aglomeratsion samaradorlikdan raqobatbardoshlik va brendlashga, so'ng innovatsion ekotizim va qiymatni birgalikda yaratishga, nihoyat raqamli platformalashuv sharoitida ma'lumotga asoslangan koordinatsiyaga tomon siljishi asoslandi. Ilmiy qarashlarning iyerarxik tasnifi klaster haqidagi bahslarda terminologik aralashuvni kamaytirib, turli yondashuvlarning qaysi tushuntirish darajasiga tegishli ekanini aniqlashtiradi.

Nazariy jihatdan natijalar turizm klasterini ko'p qatlamli fenomen sifatida talqin qilish uchun mezo darajadagi destinatsiya boshqaruvi va makro darajadagi institutsional muhitni birlashtiruvchi ramkani taklif etadi. Amaliy jihatdan esa klaster siyosatini ishlab chiqishda real tarmoq aloqalari, ma'lumot almashish, standartlar va reputatsiya kapitalini qo'shma boshqarish mexanizmlariga ustuvor e'tibor qaratish zarurligi kelib chiqadi. Kelgusidagi tadqiqotlar turizm klasterlarida platforma vositachilari ta'siri, qiymat taqsimoti va mahalliy kooperatsiya barqarorligini o'lchash indikatorlarini ishlab chiqishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маршалл А. Принципы экономической науки. М.: Прогресс, 1993. 594 с.
2. Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. М.: Альпина Паблишер, 2016. 716 с.
3. Buhalis D. Tourism Destination Marketing and Management. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2000. 353 p.
4. Lundvall B.-Å. National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter Publishers, 1992. 342 p.
5. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. 255 p.
6. Vargo S. L., Lusch R. F. Service-Dominant Logic: Premises, Perspectives, Possibilities. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. 224 p.
7. Gawer A. Platforms, Markets and Innovation. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2009. 416 p.
8. Солиева Д. А. Туризмни кластер асосида ривожлантиришининг иқтисодий механизмлари. Тошкент: Иқтисодиёт, 2019. 168 б.
9. Куценко Е. С. Кластеры в экономике: практики выявления, поддержки и оценки эффективности. М.: НИУ ВШЭ, 2015. 216 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>